DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-15 Pages: 127-133

Oriental Journal of Philology



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about



A LOOK AT THE WORK OF WRITERS OF OMANI LITERATURE

Shahlo I. Ahmedova
Associate Professor, PhD in Philology
Department of Arabic Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
Email: Kamolotsari2020@mail.ru
Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: Oman prose, modernism, realism, national character, magical realism.

Received: 06.03.25
Accepted: 08.03.25
Published: 10.03.25

Abstract: This article is devoted to the factors influenced on development of literature of Gulf Arab countries as well as the peculiar role of these factors in Oman literature formation. The writers and their names have been studied, which contributed to the development of Omani prose.

O‘MON ADABIYOTI YOZUVCHILARI IJODIGA BIR NAZAR

Shahlo I. Ahmedova
Dotsent, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Arabshunoslik oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Email: Kamolotsari2020@mail.ru.
O‘zbekiston Toshkent,

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Ummon nasri, modernizm, realizm, milliy kolorit, sehrli realizm.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ko‘rfaz (Xalij) arab mamlakatlari adabiyoti rivojiga ta'sir qilgan omillar, shuningdek, mazkur omillarning Ummon adabiyotining o‘ziga xos shakllanishidagi roli o‘rganilgan. Shuningdek, Ummon nasri taraqqiyotiga hissa qo‘shgan yozuvchilar va ularning asarlari tadqiq etilgan.

ВЗГЛЯД НА ТВОРЧЕСТВО ПИСАТЕЛЕЙ ОМАНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Шахло И. Ахмедова
Доцент, кандидат филологических наук (PhD)
Высшая школа арабистики
Ташкентский государственный университет востоковедения

Email: Kamolotsari2020@mail.ru
Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: оманская проза, модернизм, реализм, национальный характер, магический реализм.

Аннотация: Эта статья посвящена факторам, влияющим на развитие литературы арабских стран Персидского залива (ал-Халидж), а также своеобразной роли этих факторов в формировании оманской литературы. Изучены писатели, которые способствовали развитию оманской прозы, и их прозведения.

Kirish

XIX asrning oʻrtalaridan boshlab mumtoz arab adabiyoti asta-sekin musulmon oʻrta asr davrida shakllangan mumtoz adabiy an'analardan voz kechib, oʻzgarib borayotgan siyosiy-ijtimoiy voqelikni tasvir etishga yangi badiiy uslublar va ifodaviy tasviriy vositalar izlay boshlaydi, jumladan gʻarb adabiyoti tajribasiga murojaat qiladi. Mazkur adabiy yangilanish jarayoni Misr, Suriya va Livanda boshlanib, XX asrning 60-yillariga borib Xalij arab mamlakatlari bu jarayonlarga jalb qilindi.

Bu arab mamlakatlari adabiy yangilanish yoʻliga kechroq oʻtgan boʻlsa ham unda madaniy-adabiy rivojlanish jarayoni tezkorlik bilan oʻtishi kuzatildi: Kuvayt va Bahraynda – 1940 yil, Birlashgan Arab Amirligi, Qatar va Ummonda 1960 yillarda boshlandi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kuvayt va Bahrayn adabiyotidagi yangilanish harakatining boshlanishi milliy uygʻonish gʻoyalarining tarqalishi bilan uzviy bogʻliqdir. Milliy uygʻonish deganda, bu oʻrinda birinchi navbatda taraqqiyot yoʻlida ommani bilimli qilish va tarbiyalash tushunilar edi va zimmasiga alohida mas'uliyat qoʻyilar edi. Shuning uchun Kuvaytdagi Abdulaziz Rashid, Bahrayndagi Xolid Faraj kabi ma'rifatparvarlar yangi tipdagi milliy matbuot, publitsistika va badiiy adabiyotni yaratgan ilk kashshoflar boʻlishdi. Bu mamlakatlarda ta'limning yangi tizimi va matbuotning paydo boʻlishi yangi adabiyotning yanada rivojlanishi uchun zarur sharoit yaratdi.

Zero, bu mamlakatlarda adabiy yangilanish arab “neftь davri” boshlanishiga qadar boshlangan ekan, umumiy ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy qoloqlik sharoitida yangi adabiyot namoyandalari oldida, ta'kidlaganimizdek, aholini bilimli qilish va ahloqiy qadriyatlarni targʻib qilish vazifasi turar edi. Shuning uchun ular sezilarli darajada Misr, Livan va Suriya adabiyotining XIX–XX asr boʻsagʻasidagi ma'rifatparvarlik merosiga e'tibor qaratdilar. Zamonaviy Misr, Suriya, Livan yozuvchilarining 40-yillardagi romantizm, tanqidiy realizm tajribalari ularni kam qiziqtirar edi, chunki bu yoʻnalishlar oʻsha vaqtdagi Arabiston jamiyatidan farqli oʻlaroq rivojlangan jamiyatning ma'naviy ehtiyojlariga koʻproq javob berar edi.

BAA, Qatar va Ummondagi ahvol, Kuvayt va Bahraynga nisbatan birmuncha boshqacha edi. Bu yerda adabiy yangilanish neftь omili tomonidan vujudga kelgan ijtimoiy farovonlikning keskin oʻsishi natijasida boshlandi. Neftь sotishdan olinayogan daromad ijtimoiy ta'minot, ta'lim va ommaviy axborot vositalari, shu jumladan radio va televideniyening tezkorlik bilan rivojlanishini ta'minladi. Yangi badiiy adabiyot boshlovchilari oʻz zamondoshlarining oʻrganish oson boʻlgan asarlaridan andoza ola boshladilar. Shuning uchun bu mamlakatlardagi yangi adabiyotning rivojlanishi juda tez – haqiqiy evolyutsion “sakrash” boʻldi. Ummon badiiy nasri buning yorqin namunasidir.

Natijalar. Yangi Ummon nasrining kashshoflaridan biri shoir, hikoyanavis, romannavis, publitsist va jamoat arbobi Abdulloh ibn Muhammad Toiy (1927–1973) boʻlib, u butun Xalij arab mamlakatlarining afkor doiralarida mashhurlikka erishgan edi. Uch she'riy toʻplam va koʻplab gazeta va jurnal maqolalaridan tashqari, yetti hikoya va ikki moʻ'jaz pьesa uning qalamiga mansub boʻlib, ular ibratomuz ma'rifatparvarlik ruhida yozilgan edi. Shu bilan birga u yangi Ummon adabiyotidagi “katta” nasr asarlarining muallifi ham boʻldi. Bular: “Jabal Axdar farishtalari” (1963) va “Katta yelkan” (1971)dir. Bulardan birinchisi Ummonning Sulton Said bin Taymur davrida yagona davlatga birlashish tarixiga bagʻishlangan roman boʻlib, ikkinchisida esa ummonliklarning XVI–XVII asrlarda portugal bosqinchilariga qarshi kurashi tasvirlangan. Ikkala roman ham XIX asr oxiridagi Livan ma'rifatparvarlari usulida yozilgan boʻlib, ummonliklarda milliy birlik va milliy gʻurur hissiyotlarini shakllantirishga qaratilgan. Bu esa Ummon davlatchiligining mustahkamlanishiga oid vazifalardan kelib chiqqan ehtiyoj edi.

1970 yilda hokimiyatga Sulton Qobus bin Said hazrati oliylarining kelishi nafaqat Ummonning iqtisodiy gullab yashnashi, balki milliy madaniyatning barq urib rivojlanishiga olib keldi. Mamlakatda jadal sur'atlar bilan zamonaviy ta'lim tizimi shakllana bordi, turli ilmiy-ma'rifiy markazlar, madaniyat klublari va kutubxonalar tashkil qilindi. Yuzlab yosh ummonliklar xorijga oʻqishga ketdilar. 1986 yilda birinchi milliy universitet ochildi.

Mamlakatda “Al-Vatan” (1971 y. boshl.), “Ummon” (1972 y.b.), “Al-Gʻadir” (1977 y.b.), “Ash-Shabiba” (1983 y.b.) kabi davriy nashrlar chiqa boshladi. Ular oʻz sahifalarida yosh ummonlik nosir va shoirlarning asarlarini e'lon qildilar va bu bilan kitobxonlarda yangi adabiyotga nisbatan qarashlarni, badiiy didni shakllantiradi.

Bu sohada 1974 yildan boshlab har chorakda nashr qilinadigan “Nizva” jurnali alohida rolь oʻynadi. Uning muharriri taniqli Ummon shoiri va mutafakkiri Sayf Rahbiy edi. Bu jurnal toʻla elektron versiyaga (www.nizva.com) ega boʻlib, arab dunyosidagi eng yaxshi madaniy-arabiy nashrlardan biri hisoblanadi.

Mamlakatda ta'lim va matbuotning rivojlanishi adabiyot va ijodkorlarning doirasini kengaytirdi. 1970–1980 yillarda hikoyanavislar Ahmad Bilol, Mahmud Husaybiy, Ali Abdulloh

Qalboniy, Sodiq bin Hasan Abdavaniy, Hamad bin Rashid bin Rashod, romannavis Sayf bin Said Sa'diy, shuningdek, Saud bin Sa'd Muzaffar va Xamad Xamis Nosiriy o‘z ijod yo‘llarini boshladilar. Garchi bu ijodkorlarning barchasi o‘z ijodlarida yetarli darajada sentimental syujetlar yaratgan holda shaxsning axloqiy tarbiyasining ma'rifiy jihatlariga e'tibor qaratgan bo‘lsalar-da, shunga qaramay ular mamlakatda ro‘y berayotgan ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarni sezilarli darajada aks ettirdilar. Bu ularning asarlarini realistik bayon turiga yaqinlashtiradi.

O‘sha davr yozuvchilari o‘z asarlarida o‘sib borayotgan jamiyat farovonligiga e'tibor beribgina qolmay, balki an'anaviy axloqiy qadriyatlarning yangi hayotiy voqelik sharoitida saqlab qolinishi haqida ham qayg‘urdilar. Yevropaliklar va G‘arb oliy o‘quv yurtlaridan qaytib kelayotgan yoshlar bilan birga Ummonga kirib kelayotgan G‘arb madaniyati mazkur mualliflarning asarlarida axloqni buzish manbai sifatida tasvirlanadi. Masalan, Saud Muzaffar “Qum va muz” (1988) va “Erkak va ayol” (1990) romanlarida ummonliklarning yevropalik ayollar bilan ishqiy munosabatlarini qoralaydi. “1986” (1993), “Jabalul hajarlik erkaklar” (1995) romanlarida esa pul qudrati ta'sirida mamlakatda oila-qarindoshlik rishtalari uzilayotganligi tasvirlanadi. “Aprelda yoqqan yomg‘ir ” (1997) romanida esa Ummon yangi boylarining haqiqiy gangster jangarilari tarzidagi hayoti tasvirlanadi.

1970 yillar boshidan Xalij arab mamlakatlari adabiyotida hali yetarli darajada rivojlanmagan realistik yo‘nalish bilan bir qatorda avvalroq Misr, Suriya va Livan yozuvchilari ijodida keng tarqalgan modernizm tamoyillari kuzatildi. Xalij arab mamlakatlaridagi modernistik hikoyaning ilk ijodkorlari Kuvaytlik Laylo Usmon, baxraynlik Amin Solih va Favziya Rashid, BAAdan Abdulloh Sakr Mirriy va Saud Arimiylar edi. 1980 yillarning o‘rtalarida shakllangan Ummon hikoyanavislarining yangi avlodi ham milliy adabiyotda tarkib topayotgan realistik yo‘nalish bosqichini “sakrab o‘tib” modernizm estetikasiga murojaat qiladilar. Mazkur avlodning Muhammad Qurmutiy, Muhamad Balushiy, Yunus Axzamiy, Yahyo Munzariy kabi vakillari u yoki bu darajada avval mavjud bo‘lgan voqelikni haqqoniy ob'ektiv ko‘rsatishga intilgan syujetli hikoyalardan sub'ektivlikka o‘tdilar hamda o‘z asarlarini tushkunlik va begonalashuv holatini shakllantiruvchi ong oqimi bilan to‘ldirdilar, shuningdek, allegorik va syurrealistik timsollar yaratishdi.

Mazkur avlod yozuvchilari orasida hikoyanavis va romannavis Ali Ma'mariy (1958–2013) alohida o‘rin tutadi. Uning ijodiga postmodernistik xususiyatlar: matn “o‘yin”i, iqtibosli talqinlar ko‘pligi, ma'nolar “nimrangligi”, personajlar “shartliligi” va vaqt chegaralari buzilishi kabilar xosdir.

Polyak tadqiqotchisi B. Mishalak-Pikulьska u haqda quyidagilarni yozadi: “Ummon mualliflari orasida u enfant terrible tajassumi hisoblanadi. Uning nasriy asarlari aqliy tasnif va ta'rifning mavjud vositalari yordamida talqin qilish va taniqli tahliliy usullariga mos tushmaydi.

Uning asarlari go‘yo ataylab mavjud adabiyot qoidalari hamda yozuvchi va kitobxon o‘rtasida o‘zaro munosabat mexanizmini barbod qiladi. Uning ijodi o‘zida ma'nolari bilan xarakterlanib, bu holat o‘quvchiga u yoki bu ma'no yoxud bir talqinda to‘xtalish imkoniyatini bermaydi” (Michalak Pikulska B. Modern poetry and prose of Oman 1970-2000. – Krakow, 2002. – P. 65).

Shubhasiz, Ali Ma'mariy ijodi boshqa bir enfant terrible – Birlashgan Arab Amirligi yozuvchisi Soniy Suvaydiy ijodi kabi yosh arab yozuvchilarida dadil eksperiment ruhi mavjudligini tasdiqlaydi.

1990-yillar o‘rtalaridan boshlab, jahon axborot almashinuvining keskin tezlashuvi va uning doirasi kengayishi (shu jumladan adabiyotda ham) sharoitida Ummonda birinchi navbatda ijodiy eksperiment, yozuvchilikning individual usullarini ishlab chiqishni maqsad qilib qo‘ygan yangi nosirlar avlodi shakllandi. Bular Muhammad Sayf Rahbiy, Xolid Mansur Forisiy, Salim Tvaya, Xalifa Sultan Abri, Abdulloh Habib, Ali Sa'id Safaviy, Muhammad Yahyo, Salim Xumaydiy, Numayr Salim Sa'id, Sulaymon Ma'mariy, Abdulaziz Forisiy, Husayn Abriy, Sulton Azriy, Muhammad Arimiy, Mahmud Rahbiy, Ahmad Rahbiylardir.

Ayni paytda, Ummon nasrida bir qancha ayollarning nomlari paydo bo‘ldi. Bular: Fotima Sha'bon, Badriya Shahhiy, Badriya Vaxaybiy, Bushra Vaxaybiy, Tohira Lavatiy, Xavla Zohiriy, Zuvayna Xalfan, Javha Xarisiy, Galiya Sa'id, Xuda Jahvariy, Azhar Ahmad, Rahma Mug‘ayzaviylardir. Bu adib va adibalarning barchasi arab va jahon adabiyotida mavjud bo‘lgan turli oqimlar, xususan syurrealistik modernizm (Havla Zohiriy), “she'riyat” modernizmi (Abdulloh Habib), sehrli realizm (Badriya Vahaybiy) kabi oqimlarga murojaat qiladilar.

2000 yil boshlaridan Ummon nasrida romanchilik ancha rivojlandi. Ijodini hikoyanavislikdan boshlagan ko‘pgina mualliflar keng miqyosli mavzu va g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishlarni qamrab oluvchi romanlarni e'lon qildilar. Masalan, Mahmud Rahbiyning “Orzumandning xaritasi” (2010) deb nomlangan “muhojirlik” romani qahramoni Yangi Zelandiyaning madaniyatidan hayratlanadi. Bu roman g‘oyaviy jihatdan ilk arab ma'rifatchilarining sayohat taassurotlari tipidagi romanlariga yaqin turadi. Badriya Shahhiyning “Fizika-1” (2009) romani hayoti ikki madaniyat – sharq va g‘arb (rus) madaniyati bilan bog‘langan insonlarning taqdiri haqida. Abdulaziz Forisiyning “Er yig‘laydi, Saturn kuladi” (2007) romani arab nasri uchun ancha tipik bo‘lib, uni “qishloq” romani deyish mumkin. Unda shaxs ruhiyatidan ko‘ra insoniy munosabatlar va mahalliy koloritga katta e'tibor beriladi.

Muhammad Sayf Rahbiyning “Bu yerdan Sayyid o‘tgan” romani yetuk tarixiy asar bo‘lib, unda Ummonning XIX asr birinchi yarmidagi tarixi hujjatli dalillar bilan tasvirlanadi va badiiy to‘qima bilan uyg‘unlashib ketadi. Shu muallifning “Xasht” (2008) romani zamonaviy Ummon jamiyatining qusurlarini ochiq tasvirlaydi. Javha Xarisiyning “Oy ayollari” (2010) romanida XX asarda mamlakat hayotidagi radikal o‘zgarishlar konteksti ostida bir necha Ummon oilalarining

taqdiri hikoya qilinadi va roman milliy epopeya xarakteriga ega. Ummon millati uchun og‘riqli mavzu, ya'ni Dofar viloyatidagi 60–70-yillarda ro‘y bergan qurolli to‘qnashuv Ali Ma'mariyning “Ko‘priklar shiviri” (2008) romanida qalamga olinadi. Bu asar 100 ta eng yaxshi arab romanlari qatoriga kiradi. Mahmud Rahbiyning “Sehrlangan ayol boshlagan yo‘l” (2010) romani milliy xalq og‘zaki ijodi ohanglariga tayanib, sehrli realizmga yaqindir. Husayn Abriyning “Diazepam” (2001) romani shaxsni anglash, haddan ziyod begonalashuv hissini, Ali Ma'mariyning “Fikrlar cho‘qqisi” (2003) romani zamon, makon va voqealarning sochmasini ifoda etib modernistik oqimga xos uslubni qo‘lladi (Michalak-Pikulska B., 2012, p. 63).

Xulosa. Ummon nasrida o‘z ifodasini topgan uslub va yondoshuvlarning bunday xilma-xilligi qirk yil davomida jadal rivojlanib , yangilanish jarayoni yuz yil avval boshlangan bir qator arab mamlakatlari bilan bir bosqich darajasiga chiqib olishga harakatdaligidan dalolat beradi. Ishonch bilan aytish mumkinki, hozirgi Ummon nasri har tomonlama adabiyotshunoslik tadqiqotiga loyiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Michalak-Pikulska B. (2002). Modern poetry and prose of Oman. 1970-2000, Krakov.
2. Michalak-Pikulska B. (2012). Modern literature of the United Arab Emirates, Krakow.
3. . Suvorov M.N. (2012). Realism and modernism in the fiction of the Arab countries. Realizm i modernizm xudojestvennoy proze stran Aravii // Vestn.St. Petersburg.University. Oriental studies. African studies. Issue 13. (in Russian)
4. Rashid Ali Muhammad. (2009). Al-Qissa wa al-rivaya wa adab al-atfal fi dawlat al-Imarat al-arabiyya al-muttahida madkhal tawthiqi. Ras al-Khaiman, 272 p. (in Arabic)
5. Ramsay G. (2003). Styles of expression in women’s literature in the Gulf // Orientalia Suecana.Vol.LI-LII (2002-2003)/ Uppsala: Uppsala University, 2003.
6. Ramsay G. (2006). The past and present Aspects of intertextuality in modern literature in the Gulf // Intertextuality in modern Arabic literature since 1967/ Durham, Durham University.
7. .Gachev G.D. (1964). Accelerated development of literature (based on the material of Bulgarian literature of the first half of the 19th century). Uskorennoye razvitiye literaturi (na materiale bolgarskoy literature pervoy polovini XIX v.), Moscow: Nauka Publ. (in Russian)
8. Akhmedova, Shahlo. (2017). Novellistics in the arab countries of the Persian Gulf. International Scientific and Practical Conference World science. Vol. 5. No. 4, P. 9-11.
9. Akhmedova, Shakhlo Irgashbaevna. (2021). Ideological and artistic searches in the short stories of the arab countries of the persian gulf at the beginning of the XXI century // Asian Journal of Multidimensional Research 10.10, -P. 838-842.

10. Akhmedova, Shakhlo Irgashbaevna. Formation and Development of Storytelling of the Gulf Arab Countries. Power System Texnology Journal, Volume 48, Issue 4 (2024) (Scopus Q1) ISSN: 1000-3673 https://powertechjournal.com/index.php/journal/article/view/1146